



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI  
HUZURIDAGI KINEMATOGRAFIYA AGENTLIGI DIREKTORINING  
BUYRUG‘I**

**№ 50 a**

**“ 25 ” aprel 2024-yil**

**O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya  
agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki idoraviy  
hujjatlarini yangi tahrirda tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 6-iyuldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5177-son qarori va 2022-yil 12-yanvardagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-81-son qarori ijrosini ta‘minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish borasida faoliyatni yanada takomillashtirish, xodimlarning korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatini hamda huquqiy ongi va madaniyatini yanada oshirish maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1. Quyidagilar:**

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati 1-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalari faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash uslubiyoti 2-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi nizom 3-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish reglamenti 4-ilovaga muvofiq;

O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlarining etika



va korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o'qitilishini tashkil qilish bo'yicha yo'riqnoma 5-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida kontragentlarni tekshirishga oid yo'riqnoma 6-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalariga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish bo'yicha yo'riqnoma 7-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish uslubiyoti 8-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining holati to'g'risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish bo'yicha nizom 9-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlarining korrupsiyaviy xatti-harakatlari va odob-axloq qoidalarini buzish holatlari ustidan xizmat tekshiruvlari o'tkazish bo'yicha reglament 10-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalarida korrupsiyaga oid huquqbuzarlik haqida xabar bergan yoki korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko'maklashgan xodimlarni rag'batlantirish tartibi to'g'risidagi nizom 11-ildavaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligi markaziy apparati, tizim tashkilotlari va muassasalari xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo'lgan sovg'a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to'g'risidagi nizom 12-ildavaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Direktor o'rinbosarlari, agentlik markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari rahbarlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha (yangi tahrirdagi) ichki idoraviy hujjatlar bilan o'z rahbarligidagi tarkibiy bo'linmalar, xodimlari va ishchi-xizmatchilari tanishtirilishini, ushbu hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasin va nazorat qilsin.

3. Agentlik tizim tashkilotlari va muassasalari rahbarlari:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha yangi tahrirdagi ichki idoraviy hujjatlar ijro uchun qabul qilinishini ta'minlasin;

o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarini agentlikning korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlariga muvofiqlashtirish choralarini ko'rsin;

xodimlar va ishchi-xizmatchilar ushbu buyruq bilan tanishtirilishini, ushbu hujjatlar talablariga qat'iy rioya qilinishini ta'minlasin va nazorat qilsin;

mazkur buyruq ijrosi bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi batafsil axborotni tasdiqlangan hujjatlarni ilova qilgan holda har chorak yakuni bilan Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xizmatiga taqdim etilishini ta'minlasin;

4. Inson resurslarini rivojlantirish boshqarmasi (Raxmanov), tizim tashkilotlari va muassasalarining kadrlar bo'limi va boshqarish bo'yicha mas'ul xodimlari lavozimga tayinlangan va kelgusida ishga qabul qilinadigan xodimlarni mazkur buyruq bilan tasdiqlangan ichki idoraviy hujjatlar bilan imzo qo'ydirgan holda tanishtirib borilishini ta'minlasin.

5. Mazkur buyruq qabul qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi huzuridagi Kinematografiya agentligining 2023-yil 4-maydagi "Korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan ichki hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 49a-son buyrug'i o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

6. Devonxona (Murodova) ushbu buyruq nusxalarini tizim tashkilotlari va muassasalariga yetkazilishi ta'minlasin.

7. Agentlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish va komplaens nazorati xizmati (Raxmanov) mazkur buyruqning bajarilishini ta'minlasin va amalga oshirilgan ishlar yuzasidan har chorakda Agentlik rahbariyatiga axborot kiritib borsin.

8. Mazkur buyruq ijrosini nazorat qilish direktor o'rinbosari A.Xodjayev zimmasiga yuklatilsin.

Direktor



F.Abduxalikov